<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish.....	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана.....	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления.....	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения.....	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari.....	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugaprovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	962
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....	966
Ro'ziqulova Zarina Yusupovna	
Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida	969
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rnini	974
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	978
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi	
Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatlari	983
Samadova Mahbuba Nutfullo qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	987
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi	
15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati.....	991
G. X. Ravshanov, A. X. Norov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..	997
Abduraximova Shahnoza Alikulovna	
Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	1000
Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova	
O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....	1003
B. Y. Hamrayev	
Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati	1008
Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich	
Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'rnini.....	1011
Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida refleksiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni	1015
Dostonbek Bobojonov G'ofurovich	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1019
Umarova Mohichehra Ikromjon qizi	
Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	1023
To'laganova Mohinur Abduhakim qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....	1026
Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....	1030
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	1035
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayeva	
Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....	1038
Raximova Intizor Rustamovna	
Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari	1041
Sabirova Gullola G'ayratovna	
Феномен русскоязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....	1045
Чернова Татьяна Алексеевна	



MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA RAG'BATLANTIRISH TIZIMIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Umarova Mohichehra Ikromjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati yoritilgan. Rag'batlantirishning pedagogik mohiyati, ta'lim jarayonidagi vazifalari hamda bolalarning bilish faoliyatini faollashtirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, rag'batlantirish vositalaridan samarali foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy o'quv motivatsiyasini shakllantirish va shaxsiy sifatlarni rivojlantirish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, rag'batlantirish tizimi, didaktik ahamiyat, motivatsiya, ta'lim samaradorligi, pedagogik jarayon.

Abstract: This article examines the didactic significance of using an incentive system in the preschool education process. The pedagogical essence of stimulation, its functions within the educational process, and its role in activating children's cognitive activity are analyzed from a scientific and theoretical perspective. In addition, the study substantiates the effectiveness of incentive tools in fostering positive learning motivation and developing personal qualities in preschool-aged children.

Key words: preschool education, incentive system, didactic significance, motivation, educational effectiveness, pedagogical process.

Аннотация: В статье раскрывается дидактическое значение использования системы стимулирования в процессе дошкольного образования. С научно-теоретической точки зрения проанализированы педагогическая сущность стимулирования, его функции в образовательном процессе, а также роль в активизации познавательной деятельности детей. Обоснованы возможности формирования положительной учебной мотивации и развития личностных качеств дошкольников на основе эффективного применения средств стимулирования.

Ключевые слова: дошкольное образование, система стимулирования, дидактическая значимость, мотивация, эффективность обучения, педагогический процесс.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi bolaning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'inidir. Ushbu bosqichda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda pedagogik ta'sir vositalaridan oqilona foydalanish muhim hisoblanadi. Shunday vositalardan biri – rag'batlantirish tizimi bo'lib, u bolalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimi ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi muhim didaktik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Rag'batlantirish bolalarda o'quv-bilish faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirib, ularning mashg'ulotlarda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi. Pedagogik jarayonda rag'batlantirishdan tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish bolalarning diqqatini jamlash, mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolaning kichik yutuqlarini e'tirof etish orqali uning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi hamda o'rganishga bo'lgan ichki ehtiyoji kuchayadi. Shu jihatdan, rag'batlantirish tizimi ta'lim jarayonining didaktik samaradorligini oshiruvchi, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimi muhim didaktik vositalardan biri hisoblanadi. Rag'batlantirish vositalariga og'zaki maqto'v, belgilar, o'yin elementlari, ko'rgazmali materiallar hamda zamonaviy texnik vositalar kiradi. Ushbu vositalar ta'lim metodlari bilan uyg'un holda qo'llanilib, bolalarning bilim olishiga, tarbi-



yalanishiga va shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni boshqarish va natijalarni kuzatib borishda samarali ahamiyat kasb etadi.

Rag'batlantirish tizimi audiovizual jihatdan bolalarda qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi, axborotni oson qabul qilishga yordam beradi hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga imkon yaratadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rag'bat muhim omil bo'lib, ularning o'qishga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi va faol ishtirokini ta'minlaydi. Rag'batlantirish vositalarini tanlash ta'lim metodlari bilan chambarchas bog'liqdir. Agar ta'lim jarayonida faol va o'yin metodlaridan foydalanilsa, ko'rgazmali qurollar, didaktik o'yinlar hamda texnik vositalar rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Amaliy mashg'ulotlarda esa faol-texnik rag'batlantirish usullari bolalarning mustaqil harakat qilishiga va o'z imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beradi. Rag'batlantirish tizimining yagona va qat'iy tasnifi mavjud emas. Uning asosiy ustunligi turli vositalarning o'zaro uyg'un holda qo'llanilishidadir. Rag'batlantirish vositalari bir-birini inkor etmaydi, balki maktabgacha ta'lim jarayonida bir-birini to'ldirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan rag'batlantirish – bu ta'lim oluvchilarning ijobiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularni yangi yutuqlarga undashga qaratilgan ta'sir shaklidir. Didaktik jihatdan rag'batlantirish bolalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ichki ehtiyoj va qiziqishlarini kuchaytiradi. Maktabgacha yosh davrida rag'batlantirish ta'lim jarayonining muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ushbu yosh bosqichida bolaning shaxsiy faolligi, o'rganishga bo'lgan qiziqishi hamda ijobiy xulq-atvori ko'p jihatdan to'g'ri tashkil etilgan rag'batlantirish tizimiga bog'liq bo'ladi. Rag'bat bolalarda o'ziga ishonchni shakllantiradi, ularni faol harakat qilishga undaydi va ta'lim jarayonida ijobiy emotsional muhitni yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'limda rag'batlantirishning didaktik ahamiyati haqida V.A. Slastyonin rag'batni bolalarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi muhim pedagogik omil sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, rag'batlantirish o'quv motivatsiyasini kuchaytirib, bolalarda ijobiy xulq-atvor va o'qishga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, J. Hasanboyev va boshqa pedagog olimlar rag'batlantirishni tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirish, ularni ijobiy xatti-harakatlarga yo'naltirish hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishni mustahkamllovchi ta'sirchan pedagogik vosita sifatida e'tirof etadilar. Ularning fikricha, rag'batlantirish bolalarning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi, tashabbuskorlikni rivojlantiradi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Mazkur ilmiy qarashlar maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida rag'batlantirish tizimi didaktik samaradorlikni ta'minlovchi muhim omil ekanligini asoslaydi. To'g'ri va me'yorida qo'llangan rag'batlantirish bolalarda bilim olishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi, ularning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshiradi hamda shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rag'batlantirish tizimini pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilib, unda quyidagilar ta'kidlanadi: "Ta'lim jarayonida bolalarning har bir yutug'ini e'tirof etish, ularni maqtash va qo'llab-quvvatlash orqali ijobiy motivatsiyani shakllantirish hamda o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish muhim hisoblanadi". Mazkur talab rag'batlantirish tizimining maktabgacha ta'lim jarayonidagi didaktik va tarbiyaviy ahamiyatini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma hamda hujjatlarni tahlil qilish usullari orqali to'plandi. Pedagogik kuzatuv maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonida bolalarning rag'batlantirishga bo'lgan munosabati va faolligini aniqlashga yo'naltirildi. Suhbat va so'rovnoma usullari tarbiyachilarning rag'batlantirish vositalaridan foydalanish tajribasi hamda ularning samaradorligi haqidagi fikrlarini o'rganish imkonini berdi.

Olingan ma'lumotlar tahlil va taqqoslash usullari yordamida qayta ishlanib, umumlashtirildi. Natijalarni tahlil qilishda tizimli va mantiqiy yondashuv asosida rag'batlantirish tizimining bolalarning bilish faolligi, motivatsiyasi va o'quv jarayonidagi ishtirokiga ta'siri baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimi quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

- bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish;
- o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirokini ta'minlash;
- mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
- ijobiy xulq-atvor va intizomni shakllantirish.

Rag'batlantirish tizimining didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat.

1. Rag'batlantirish va ichki motivatsiya uyg'unligi.

Maktabgacha yoshda bolalarning o'qishga bo'lgan munosabati asosan ichki motivatsiya orqali shakllanadi. Rag'batlantirish:

- tashqi majburlashni kamaytiradi;
- bolada "men eplay olaman" degan ishonchni kuchaytiradi;
- faoliyatdan zavq olishni ta'minlaydi.

Didaktik nuqtayi nazardan, rag'batlantirish bilimlarni mexanik o'zlashtirish emas, balki ongli o'rganishga xizmat qiladi.

2. Rag'batlantirish va kompetensiyaviy yondashuv.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosiy o'rinni egallaydi. Rag'batlantirish:

- muloqot kompetensiyasini;
- ijtimoiy moslashuvni;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu jarayonda rag'bat bolaning faqat natijasini emas, balki harakati va sa'y-harakatini e'tirof etishga qaratiladi.

3. Rag'batlantirishning yosh xususiyatlariga mosligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun:

- qisqa va aniq maqtoov;
- emotsional qo'llab-quvvatlash;
- ramziy rag'batlar (yulduzcha, rangli belgi) eng samarali hisoblanadi.

Didaktik jihatdan ushbu usullar bolaning diqqatini jamlash va o'quv faoliyatiga jalb etishga xizmat qiladi.

4. Rag'batlantirish orqali ijobiy pedagogik muhit yaratish.

Rag'batlantirish tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotida:

- ishonchga asoslangan muhitni;
- tarbiyachi va bola o'rtasida hamkorlikni;
- o'zaro hurmatni ta'minlaydi.

Bunday muhitda ta'lim jarayoni tabiiy va samarali kechadi.

5. Rag'batlantirishda me'yor va pedagogik takt.

Ilmiy tadqiqotlarda rag'batlantirishni:

- ortiqcha qo'llamaslik;
- barcha bolalarni teng solishtirmaslik;
- individual yutuqlarni e'tiborga olish zarurligi ta'kidlanadi.

Ushbu didaktik muvozanat ta'lim samaradorligini oshiradi va bolaning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rag'batlantirishning og'zaki, emotsional, ramziy va jamoaviy shakllari keng qo'llaniladi. Ushbu shakllar bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda tanlanganda ta'lim samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, maqto'v va emotsional qo'llab-quvvatlash bolalarda o'ziga ishonch hissini kuchaytiradi. Bu jarayonda rag'batlantirish tizimi nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki bolaning shaxsiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Rag'batlantirish orqali bolalarda ijobiy emotsional holat vujudga kelib, bu ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini barqarorlashtiradi.

Pedagog tomonidan bildirilgan maqto'v va qo'llab-quvvatlash bolalarda o'z imkoniyatlarini anglash, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati ham katta bo'lib, u bolalarda intizom, mas'uliyat va jamoada hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Rag'batlantirish tizimi maktabgacha ta'lim jarayonida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi muhim didaktik omil sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Rag'batlantirish bolalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ijobiy xulq-atvor va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolalarning psixologik va emotsional xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan rag'batlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rag'batlantirish tizimi nafaqat motivatsion vosita, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi omil sifatida ham muhim o'rin tutadi.

To'g'ri va me'yorida qo'llangan rag'bat bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantiradi, shuningdek, ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rag'batlantirish tizimini pedagogik maqsadlarga muvofiq, metodlar va ta'lim vositalari bilan uyg'un holda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Rag'batlantirishning mazmuni, shakli va usullarini bolaning yosh xususiyatlari hamda individual imkoniyatlariga mos ravishda tanlash ta'lim jarayonining didaktik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PQ-4312-son qarori.: <https://lex.uz/docs/-4327235>
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – T.: 2022. – B. 102.
3. Akhmedov B.A. Cluster methods for the development of thinking of students of informatics. Academy, 2021, 3(66), 13–14.
4. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Qodirov B.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Qodirova N.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish // Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – B. 109–111.
7. Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Slasyonin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2019.
9. Vygotskiy L.S. Bolaning psixik rivojlanishi muammolari. – Moskva, 2018.
10. Yakimanskaya I.S. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi. – Moskva, 2017.
11. Zunnunov A. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2019.
12. Karimova G.Q. Maktabgacha ta'limda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish. – Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.